



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 2 (4)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**2**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Аслонов С.М., Амиджанова М.М.</b> Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
<b>Умаров И.Ю.</b> Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
<b>Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M.</b> Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
<b>Mamajonova N.A.</b> Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
<b>Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B.</b> Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
<b>Bahromov Sh.F.</b> Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
<b>Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A.</b> Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
<b>Юсупов М.Х.</b> Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
<b>Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д.</b> Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
<b>Гулямова Н.Х.</b> Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
<b>Arziboyeva R.S.</b> Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
<b>To‘raboyev Q.Q.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
<b>Tojiboyev I.I.</b> Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
<b>Xolmirzayev I.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
<b>Saidova M.J.</b> Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
<b>Usmonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
<b>Xaydarov M.T., Jannazarova G.K.</b> Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
<b>Худайназарова Д.Г.</b> Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
<b>Madaminov A.M.</b> O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
<b>Zufarova G.A.</b> Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
<b>Ergashev I.I.</b> Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
<b>Sativaldiyeva G.X.</b> Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
<b>Kamilova A.N.</b> Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
<b>Базарова Г.Г.</b> Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
<b>Turabov B.T.</b> Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
<b>Xamzaev A.N.</b> Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
<b>Xamzaev A.N., Mirzajonov M.</b> Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

<b>Raximova L.Sh.</b> Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	<b>141</b>
<b>Nosirov S.N.</b> ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>146</b>
<b>Maxkamov X.M.</b> Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	<b>150</b>
<b>Hamrakulova M.F.</b> Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	<b>153</b>
<b>Mirzayeva L.S.</b> O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	<b>157</b>
<b>Очилов Ж.Ж.</b> Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	<b>160</b>
<b>Usubjonov Z.V.</b> Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	<b>165</b>
<b>Bekmurodov N.X.</b> Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	<b>170</b>
<b>Yusupova M.B.</b> Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	<b>175</b>
<b>Xudayberdiyev O.A.</b> Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	<b>179</b>
<b>Bo'stonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	<b>187</b>
<b>Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D.</b> O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	<b>192</b>
<b>Hamidova Sh.O.</b> Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	<b>196</b>
<b>Abdullayeva Z.S.</b> Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	<b>199</b>
<b>Duvshatova N.K.</b> Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	<b>203</b>
<b>Усманова А.Б.</b> Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	<b>207</b>
<b>Qidirniyozov A.Sh.</b> Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	<b>213</b>
<b>Dexkanova Sh.K.</b> Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	<b>217</b>
<b>Gulimboyev S.I., Rejapov X.X.</b> Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	<b>221</b>
<b>Mamatov B.S.</b> O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	<b>226</b>
<b>Kamoldinova N.A.</b> Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	<b>231</b>
<b>Aminboyev J.O.</b> Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	<b>235</b>
<b>Maxramova N.Y.</b> Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	<b>241</b>
<b>Usmanova S.S.</b> Innovative development of the pharmaceutical industry.....	<b>245</b>
<b>Faxriddinova N.N.</b> Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	<b>250</b>
<b>Захирова Г.</b> Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	<b>254</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	<b>258</b>
<b>Sharapova N.K.</b> Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	<b>264</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	<b>272</b>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
2. Uilyam F.Sharp, Gordon Dj. Aleksander, Djeffri V.Beyli. Investisii. – M.: INFRA-M, 2001. – S. 1-2.
3. Pestov D.Yu. Povysheniye investisionnoy privlekatelnosti promyshlennogo kompleksa regiona. Avtoref. diss. na soisk. uch. st. k.e.n. – M.: GOU DPO GASIS, 2007. – S. 21.
4. Straxova I.Yu. Metody povysheniya investisionnoy privlekatelnosti promyshlennosti regiona. – SPb.: Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy inzhenerno-ekonomicheskii universitet, 2009. – S. 8, 12.
5. Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. Monografiya. – T.: Ma’aviyat, 2021. 16-b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
8. stat.uz/uz/?preview=1&option=com\_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4227&Itemid=1000000000000 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
9. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi (yillik).
10. stat.uz/uz/?preview=1&option=com\_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4227&Itemid=1000000000000

**UDK:331.5**

**AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH – ULAR BANDLIGINI  
TA’MINLASHNING ASOSI**

**РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВОЙ ДЛЯ  
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИХ ЗАНЯТОСТИ**

**DEVELOPING WOMEN’S ENTREPRENEURSHIP IS THE BASIS FOR ENSURING  
THEIR EMPLOYMENT**

**Kamoldinova Nargiza Anvarovna**  
Andijon davlat texnika instituti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ular bandligini ta’minlashning strategik yo‘nalishi sifatida o‘rganilgan. Globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi va raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq holda aholining ijtimoiy-demografik guruhlari, xususan, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

**Ka’lit so‘zlar.** ayollar tadbirkorligi, bandlik, iqtisodiy faollik, davlat qo‘llab-quvvatlashi, imtiyozli kreditlash, multiplikativ samara.

В данной статье развитие женского предпринимательства исследуется как стратегическое направление обеспечения занятости женщин. В контексте трансформации рынка труда и усиления конкуренции в условиях глобализации проанализированы вопросы повышения экономической активности социально-демографических групп населения, в частности, женщин.

**Ключевые слова:** женское предпринимательство, занятость, экономическая активность, государственная поддержка, льготное кредитование, мультипликативный эффект.

This article examines the development of women's entrepreneurship as a strategic direction for ensuring their employment. In the context of labor market transformation and increasing competition under globalization, the issues of enhancing the economic activity of socio-demographic groups, particularly women, are analyzed.

**Keywords:** women's entrepreneurship, employment, economic activity, state support, preferential lending, multiplier effect.

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi davrda har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyoti darajasi mavjud resurslar salohiyatidan samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Aholining demografik tarkibida salmoqli ulushga ega bo‘lgan ayollarning iqtisodiy faollik darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ikki jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, bu jarayon ayollarning shaxsiy bandligini ta‘minlash va ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub’ektlari hisobidan qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilishi orqali boshqa ayollar va yoshlarning ish bilan bandligini kengaytirishga olib keladi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatining multiplikativ ta‘sirini namoyon etib, aholi bandligi muammosini hal etishda muhim mexanizm vazifasini o‘taydi.

Yangi O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimli davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Soha rivojining bugungi bosqichi mustahkam huquqiy baza hamda aniq maqsadli ko‘rsatkichlar (KPI) asosida boshqariladigan tizimli yondashuv bilan tavsiflanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PQ-103-son qarori bilan 2025-yilda 2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, 250 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda 250 ming nafarini oliy ta‘lim bilan qamrab olish kabi aniq parametrlar belgilangan. Mazkur hujjat bilan shuningdek, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning yaxlit tizimi joriy etilib, u “Biznesga ilk qadam”, “Biznesni yo‘lga qo‘yish”, “Biznesni kengaytirish” va “Biznesni yuksaltirish” kabi bosqichma-bosqich yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizimning muhim institutsional yangiligi sifatida O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzurida yetakchi ishbilarmon ayollardan iborat Tadbirkor ayollar kengashi tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi hududlardagi ayol tadbirkorlar muammolarini o‘rganish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va tizimli masalalar yuzasidan Hukumatga takliflar kiritishdan iborat.


Ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirishda moliyaviy instrumentlarning diversifikatsiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Hamroh” tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida 2025-yil 1-maydan boshlab bir qator yangi mexanizmlar joriy etildi. Xususan, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan xotin-qizlarga 100 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, “yashil loyihalar” va IT sohasidagi tashabbuslarni amalga oshirishga, kamida 5 nafar ayolning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashgan 1 ming nafar “ustoz” tadbirkorlarga 50 million so‘mgacha grant ajratish tizimi joriy etildi. Ayol tadbirkorlar tomonidan kredit hisobidan sotib olinayotgan asbob-uskunalar yetkazib berilgunga qadar “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan kafillik taqdim etilishi ham moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga moslashish maqsadida raqamli ekotizimni shakllantirish bo‘yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. AT “Xalq banki” tomonidan Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda “Loyihalar fabrikasi” platformasi negizida “Tadbirkor ayollar” platformasi ishga tushirildi. Mazkur platforma orqali ayol tadbirkorlarga xomashyo sotib olishda ko‘maklashish, o‘zaro kooperatsiyani kengaytirish, mahsulotlarni sotish uchun bozor topish, zarur mutaxassislarni izlash va ishga qabul qilish, shuningdek loyihalar doirasida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularga yechim topish imkoniyati yaratiladi.

Xotin-qizlarning biznes ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim dasturlari ham tizimli tus olgan. BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan

hamkorlikda amalga oshirilayotgan Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi (WESP) doirasida mamlakatning 13 mintaqasida 1500 dan ortiq tadbirkor ayollarni amaliy qo‘llab-quvvatlash, biznesni rejalashtirish, moliyaviy savodxonlik, marketing va kredit olish bo‘yicha treninglar hamda mentorlik xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu dasturning asosiy maqsadi gender-sezuvchan tadbirkorlik ekotizimini yaratish orqali ayollar boshchiligidagi korxonalarining imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Qabul qilingan dasturiy hujjatlar nafaqat joriy muammolarni hal etishga, balki uzoq muddatli tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan. Jumladan, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari bilan birgalikda ishlab chiqilayotgan “Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish strategiyasi” doirasida homiladorlik va tug‘ish ta‘tilini olgan ayollar uchun bank kreditlari bo‘yicha to‘lovlar muddatini 10 oygacha uzaytirish kabi yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari orasida xotin-qizlarning ulushini 40 foizgacha yetkazish istiqbolli maqsad sifatida belgilangan.



**1-rasm. Ayollar tadbirkorligini davlat tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlash siyosati**

Mazkur tizimli islohotlar natijasida O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bosqichma-bosqich yondashuvdan strategik va institutsional siyosat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning jamiyatdagi rolini oshirish hamda oilaviy farovonlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillar oralig‘ida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida, ya‘ni ayollar tadbirkorligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar iqtisodiy taraqqiyotni muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur sohani rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida [1] - ta‘kidlab o‘tgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida «O‘zbekiston-2030» strategiya ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisi senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2023-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisi senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi kabi qonuniy asoslar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 25-maqsadida: “Xotin – qizlarni qo‘llab – quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta‘minlash” ni ko‘zda tutadi va gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin – qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab – quvvatlashga doir islohotlarni o‘z ichiga oladi” [2]. Ushbu

maqsadlarni amalga oshirish orqali ayollar tadbirkorligini yanada kengroq rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘lishi shubxasiz.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkor ayollar soni 2018-2023-yillar oralig‘ida sezilarli darajada o‘shish tendensiyasidan iborat. Chunki keyingi yillarda mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar rahbarligidagi korxonalarining solishtirma tahlili keltirilgan.

**1-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar rahbarligidagi korxonalarini Farg‘ona vodiysidagi viloyati ko‘rsatkichlarining salmog‘i (%) [3]**

№	Hududlar	Yillar							O‘zgarishi absolyut farqi (2024-2023)
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>		<b>9</b>
1	Andijon	22,4	5,5	23,7	30,5	23,3	25,3	27,1	+1,8
2	Namangan	13,9	19,1	14,7	55,6	21,0	22,6	24,3	+1,7
3	Farg‘ona	23,8	15,9	18,3	14,2	27,2	29,3	31,2	+1,9
	<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>21,9</b>	<b>14,9</b>	<b>24,1</b>	<b>38,0</b>	<b>29,2</b>	<b>32,2</b>	<b>34,1</b>	<b>+1,9</b>

Ayollar rahbarligidagi korxonalar Andijon viloyatida tadbirkorlik faoliyati orqali ayollar tadbirkorligi korxonalarini o‘z ichiga yakka tartibdagi korxonalar, ma’suliyati cheklangan jamiyatlar, firmalar va ayollarning o‘zini – o‘zi band qilish sohalarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli 2018-2024-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi ayollar rahbarligidagi korxonalarini absolyut salmog‘i Andijonda 4,7 foiz, Namanganda 10,4 foiz hamda Farg‘ona viloyatida 7,4 foiz yoki respublika bo‘yicha 12,2 foizni tashkil etgan. Hozirgi kunda ularni faoliyatiga iqtisodiy baho berish orqali aynan qaysi drayver sohalarga ko‘proq e’tibor qaratish mumkin. Shuningdek, “2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 41249 tashkil etgan. Shundan, Andijon viloyati 1158 ta, Namangan viloyatida 1094 ta, Farg‘ona viloyatida 1976 ta bo‘lgan” [4].

Ayollar rahbarligidagi korxonalar Andijon viloyatida tadbirkorlik faoliyati orqali ayollar tadbirkorligi korxonalarini o‘z ichiga yakka tartibdagi korxonalar, ma’suliyati cheklangan jamiyatlar, firmalar va ayollarning o‘zini – o‘zi band qilish sohalarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli 2018-2024-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi ayollar rahbarligidagi korxonalarini absolyut salmog‘i Andijonda 4,7 foiz, Namanganda 10,4 foiz hamda Farg‘ona viloyatida 7,4 foiz yoki respublika bo‘yicha 12,2 foizni tashkil etgan. Shuningdek, “2025-yil 1-aprel holatiga O‘zbekistonda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 372,9 ming tashkil etgan. Shundan, Andijon viloyati 1227 ta, Namangan viloyatida 1130 ta, Farg‘ona viloyatida 2035 ta bo‘lgan” [5]. 2018-2024-yillarda Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan jami tadbirkorlik subyektlari soni qariyb 1,79 martaga yoki 24124 tani yoki viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan ayol tadbirkorlarning soni 2,34 martaga ko‘paygan. Ushbu ko‘rsatkich 2024-yildagi jami tadbirkorlik subyektlari tarkibida 38,2 foizi ayol tadbirkorlarni salmog‘iga taaluqlidir.

Ayollar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanar ekan bu ularga iqtisodiy mustaqillik beradi. Tadbirkor ayol o‘z mehnati bilan daromad topib, oila byudjetiga hissa qo‘shadi va shaxsiy ehtiyojlarini mustaqil qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Iqtisodiy mustaqillik esa ayolning jamiyatdagi mavqeiini oshiradi, uning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytiradi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar daromadining 90 foizi oila va farzandlar ehtiyojlariga sarflanadi, bu esa kelajak avlodning sog‘lom va bilimli bo‘lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – bu nafaqat ularning bandligini ta’minlash, balki butun jamiyat farovonligini oshirishning strategik yo‘nalishidir. Tadbirkor ayol o‘z mehnati bilan oilasini moddiy ta’minlabgina qolmay, balki yangi ish o‘rinlari yaratadi, ijtimoiy muammolarni hal qiladi va mahalliy hamjamiyat rivojiga hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, imtiyozli kreditlar, o‘quv dasturlari va kafillik tizimi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi PF – 158 – sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-dekabrdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-240-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-son qarori
5. “Шавкат Мирзиёев раислигида хотин-қизларни қўллаб-қувватлашга бағишланган йиғилишда аёллар учун қандай енгилликлар киритилди”- 1.03.2022-й. <https://review.uz/oz/post/shavkat-mirziyoyev-raisligida-xotin-qizlarni-qollab-quvvatlashga-bagishlangan-yigilishda-ayollar-uchun-qanday-engilliklar-kiritildi>.
6. <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/iqtisodiy-resurslar>
7. Qaysi hududda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni ko‘p? <https://www.samstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14205-qaysi-hududda-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonalar-va-mikrofirmalar-soni-ko-p>
8. <https://daryo.uz/2025/08/22/ozbekistonda-ayollar-rahbarlik-qiluvchi-kichik-korxonalar-va-firmalar-soni-ochiqlandi/?ysclid=mgl66ypnpw928629840>

**UDK:631.16**

**AMORTIZATSIYA HISOBIDA FOYDALI XIZMAT MUDDATINI ANIQLASH:  
NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR**

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОЛЕЗНОГО СРОКА СЛУЖБЫ В УЧЁТЕ АМОРТИЗАЦИИ:  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ**

**DETERMINATION OF USEFUL LIFE IN DEPRECIATION ACCOUNTING:  
THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES**

**Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlashning nazariy va amaliy yondashuvlari keltirilgan. Xususan, buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida amortizatsiya hisoblashda foydali xizmat muddati va mulk huquqining o‘tishi ehtimolini asosiy mezon sifatida belgilab, hisob siyosatida aks ettirish taklif etilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** amortizatsiya qilinadigan aktiv, asosiy vosita, nomoddiy aktiv, foydali xizmat muddati, foydalanish muddati, iqtisodiy xizmat muddati, foydalanish huquqidagi aktiv ijara muddati, ijara, amortizatsiya.

В данной статье представлены теоретические и практические подходы к определению срока полезного использования в амортизационном учете. В частности, при начислении амортизации в целях бухгалтерского учета и налогообложения в качестве основных критериев предлагается определить срок полезной службы и вероятность перехода права собственности, отразить их в учетной политике и сформировать соответствующие выводы.